

**ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA LINGVOKULTURALOGIYA**

*dotsent. Rustamov Ilxom Tursunovich*

*Toshkent davlat transport universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dastlab antropotsentrik paradigma talabi asosiga qurilib, e'lon qilingan ilmiy ishlar va ularning mualliflari xususida so'z boradi. Shuningdek, xorijdagi lingvistlarning til va madaniyat yaxlitligiga oid diqqatga sazovor fikrlari havola etilib, ularga munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** antropotsentrik paradigma, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, urf odat, milliy konsept, madaniyat, leksik, frazeologik, paremiologik birliklar, o'xshatish, ramz, stereotip, lisoniykonsept.

**KIRISH**

O'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosiy mezoni bo'lgan bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu paradigma ustuvorlik kasb etgan turli monografiya va maqolalar e'lon qilingan. Butadqiqotlarning barchasida ham aynan lingvokulturologik mohiyat yoritilmagan bo'lsa-da, shunga yaqin sohalar, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, psixolingvistika kabi yo'nalishlar tahlil markaziga olingan.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Antropotsentrik paradigma bilan shug'ullangan tadqiqotchilar qatorida S.Mo'minov, Sh.Safarov, M.Hakimova, Z.Solieva, N.Mahmudov, R.Ibragimova, E.Begmatov, A.Nurmonov, D.Xudoyberganovalar nomini tilga olish joiz [1]. Tilshunoslikda lingvokulturologiya fanining mohiyati, uning ob'ekti va predmeti borasida bildirilgan fikrlarni havola etish maqsadga muvofiq. Tilshunos A.A.Abduazizov lingvokulturologiyaga quyidagicha izoh beradi: lingvokulturologiya – til va madaniyat, o'zaro madaniy masalalarni ilmiy tadqiq

etadi. Bu soha faqat madaniyat bilan emas, balki u orqali turli milliy urf odatlar, diniy hodisalar, milliy konseptlar, dunyoni til orqali ongli his qilish vositalarini o'rganadi. Dunyoning til xaritasi, umuman, ularning insonlar ongidagi mantiqiy ifodasi bilan mos keladi. Bu masalani kengroq va chuqur ilmiy o'rganish lingvokulturologiya va lingvokognitologiya bilan bog'liqdir [3, 144].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Til va madaniyatning mushtarakligi, aloqadorligi isbot talab qilmaydigan haqiqat. Chunki har qanday tilda o'sha millat madaniyatining manzarasi aks etishiga shubha bo'lmasligi kerak. Til va madaniyatni tadqiq etuvchi lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishuvida shakllangan fan bo'lib, uning vazifasi til orqali ifodalangan madaniyatni o'rganishdir. An'anaviy tilshunoslikda til va madaniyatning o'zaro ta'siri masalasi ba'zi lingvistik masalalarni yechishda madaniyat haqidagi muayyan tasavvurlar bilan cheklangan bo'lsa, lingvokulturologik yondashuvda til o'z birliklarida madaniyatni saqlaydigan, atrof va kelajakka uzatadigan yaxlitlik sifatida tahlilga tortiladi. Sof milliy mulk hisoblanuvchi har bir ma'noli lisoniy hodisa esa shakl va milliy mazmun mushtarakligida o'rganiladi [4, 9].

Tilshunos Sh.Safarovning til va madaniyat haqidagi fikri ham e'tiborga loyiq: «Har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks topishi tabiiydir» [5, 65]. To'g'ri ta'kidlanganidek, kishilar nutqida qo'llaniladigan leksik birliklar ularning qay darajada nutq madaniyatiga egaligini tasdiqlaydi. Insonning nutq madaniyatiga u yashab, istiqomat qilayotgan jamiyat, muhitda barqarorlashgan madaniyat bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Madaniyat – murakkab, serqirra va rang-barang tushuncha. Tilshunos Yu.M.Lotman ta'kidlaganidek, «madaniyat bu – murakkab ishoraviy sistema, uning vazifasi – xotira, asosiy xususiyati – to'plashdir» [1, 23]. Butun jamiyat muayyan hudud va davrda istiqomat qilgan kishilarning umumiy moddiy va ma'naviy

boyliklarini o'zida mujassamlashtiradi. Jamiyat ongida kishilar yaratgan madaniyat va ishlab chiqarish munosabatlaridan iborat yaxlit sistema barqarorlashadi. Jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari madaniyat rivoji va inson takomiliga, inson kamoloti esa o'z navbatida mazkur munosabatlar va madaniyatning yuksalishiga sababkorbo'ladi.

Har qanday madaniyat, avvalo, milliy tabiatiga ega bo'ladi va davrlar o'tishi bilan umuminsoniy tus olishi – global xarakter kasb etishi shubhasiz. Demak, «umumiy madaniyat mavjud emas, har bir madaniyat muayyan jamiyat, millat ijtimoiy amaliyotining o'ziga xos usullari majmuini o'zida aks ettiradi» [2, 20]. Darhaqiqat, o'zbek xalqi ham o'zining uzoq asrlik tarixiy madaniyatiga ega bo'lib, bu madaniyat boshqa xalqlar ijtimoiy amaliyotini emas, faqat o'zbeklarning yashash tarzi, qadriyatlari majmuidir. «Madaniyat keng qamrovli konseptosfera sifatida «inson», «ong», «oila», «faoliyat» konseptlari bilan bevosita, «til» konsepti bilan bilvosita bog'lanadi. Sababi, inson, ong, faoliyat madaniyatni vujudga keltiruvchi omillar bo'lsa, til esa vujudga kelgan mahsulni ifodalash, saqlash va uzatish vazifasini o'taydi» [4, 12]. Aytish joizki, o'zbek tilida leksik, frazeologik va paremiologik birliklar, shuningdek, o'xshatish, ramz, stereotiplar lisoniy konsept unsurlari sifatida inson, ong, faoliyat konseptlari bilan munosabatga kirishib, o'zida til va madaniyat mushtarakligini namoyon qiladi. Bu mushtaraklik yoki xususiylik tillar lingvokulturologik jihatdan o'rganilgan taqdirdagina yanada oydinlashadi. Tavsiflanganidek, «...til ruhimiz borlig'i, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz ko'rinishi. Har bir til o'z sohiblarining tarixi va bugunini, moddiy va ma'naviy boyliklarini, tafakkur tarzi va borliqqa munosabatini ifodalaydi» [3, 368].

Tan olish kerak, til va madaniyat mavzusini tilshunoslikda yanada ommalashuvida V.fon Gumboldtning xizmatlari beqiyos. V.Gumboldt konsepsiyasining mazmun-mohiyati shundan iborat ediki, uning ta'biricha,

«moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashadi. Til inson va uni o'rab turgan dunyo o'rtasidagi bog'lab turuvchi halqa hisoblanadi». Uning

«til – xalq ruhiyati ifodasi» konsepti til va madaniyat haqidagi nazariyani bir pog‘ona yuqoriga ko‘targanligini e‘tirof etish kerak. Haqiqatan, til orqali jamiyatning, xalq, millatning ruhiyati shakllanadi, rivojlanadi va barqarorlashadi.

Lingvist V.fon Gumboldtning nazariy qarashlari ta‘sirida XIX asrning ikkinchi yarmida A.Potebnya til va xalq ruhiyatining aloqadorligini o‘rgandi. U tilni madaniyat va xalq ma‘naviy dunyosining tashkil etuvchisi sifatida baholadi. XX asrga kelib Amerikalik lingvist E.Sepir o‘z tadqiqotlarida til va madaniyat mushtarakligini yangicha talqinda tavsifladi. Uning fikricha, «Til madaniyatdan uzilgan holda yashamaydi. Til – xalq madaniyatining ko‘rsatkichi, chunki uning leksikasida ma‘lum darajada o‘zi xizmat qilayotgan xalqning madaniyati aniq tasvirlangan bo‘ladi» [6, 194]. Lingvist A.Vejbiskaya ta‘rifiga ko‘ra, «Madaniyat – belgilarda (tilda) mujassamlashgan ma‘nolarning tarixiy modeli, belgilar shaklida ifodalangan qarashlar tizimi bo‘lib, bu belgilar orqali insonlar bir-biri bilan muloqotda bo‘ladi, hayot haqidagi bilimlari va tajribalari ortadi» [7, 44].

### **XULOSA VA MUNOZARA**

XX asrning so‘nggi choragida tilshunoslikda «til – madaniyat mahsuli» ta‘rifi yetakchilik qildi. Darvoqe, til madaniyat mahsuli. Shuningdek, tilda o‘sha milliy-madaniy xususiyatlar aks etishi haqiqat. Shu nuqtai nazardan, tilning ajdodlardan yetib kelgan madaniyatni saqlab, keyingi avlodlarga yetkazishda vorislikni ta‘minlashdek muhim vazifani bajarishini ham unutmaslik kerak.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ...dis.avtoref. –T.: O‘zRFA TAI, 2000. -47 b,
2. Hakimova M.X. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ...dis. –T.: O‘zRFA TAI, 2001. -283 b,
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax: Sangzor, 2006. -92 b,
4. Mahmudov N. O‘xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli // O‘zbek tili va adabiyoti.–T.: 2011. -№3. –B.19-24,
5. Begmatov E. Antroponimlar – antropotsentrik tadqiq ob‘ekti // O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: 2013. –№3. –B 35-39,
6. Nurmonov A. Lingvistik nisbiylik va lingvistik determinizm

nazariyalari haqida mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. –T.: 2013. –№5. –B. 10-29,

7. Xudoyberganova D.S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol. fan. d-ri. ...dis.avtoref. –Toshkent,2015. –36 b.

8. Tursunovich, R. I. (2022). Teaching a Foreign Language and Developing Language Competence. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(8), 8-11.

9. Tursunovich, R. I. (2022). LINGUISTIC AND CULTURAL ASPECTS OF LITERARY TRANSLATION AND TRANSLATION SKILLS. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 10, 168-173.

10. Rustamov, I. (2022). Илхом TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(4).

11. Rustamov, I. (2022). Ilhom THE INTERLEVEL ANALYSIS OF VERBAL HUMOUR RESOURCES IN THE ENGLISH LANGUAGE: THE INTERLEVEL ANALYSIS OF VERBAL HUMOUR RESOURCES IN THE ENGLISH LANGUAGE. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(4).

12. Rustamov, I. (2022). ilhom МИЛЛИЙ ЛАТИФАЛАРНИНГ СТЕРОТИПИК ТАЛҚИНИ: МИЛЛИЙ ЛАТИФАЛАРНИНГ СТЕРОТИПИК ТАЛҚИНИ. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(4).

13. Tursunovich, R. I. (2022, November). ON THE CONCEPTUAL METAPHOR: MAN IS UP, WOMAN IS DOWN. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 1, No. 2, pp. 28-31).

14. Tursunovich, R. I. (2022, November). THE SIGNIFICANCE OF PRAGMATIC APPROPRIATENESS IN ESL CULTURE. In Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 1, No. 2, pp. 157-160).

15. Rustamov, I. (2022). DEVELOPMENT OF SPEAKING COMPREHENSION IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE FOR PROFESSIONAL PURPOSES. INDIA. [http s://doi.org/10.5958/2249-7315.2022.00099.5](http://s://doi.org/10.5958/2249-7315.2022.00099.5)

16. Rustamov, I. (2022). CLASSIFICATION SYMBOLS OF WORDS. <https://www.indianjournals.com/ijor.Aspх>. <https://doi.org/DOI : 10.5958/2249-7315.2022.00097.1>